Ko'p madaniyatli marketing turli madaniy kelib chiqishi bo'lgan iste'molchilar o'rtasidagi idrok, e'tiqoddagi farqlarni tan oladi, turli xil madaniyatlarga qiziqish va minnatdorlikni namoyish qilish orqali biznes mahsuloti yoki xizmatlari ta'sirini maksimal darajaga ko'tarish uchun bir nechta madaniyatlarning madaniy me'yorlaridan foydalanadi (De-Mooij, 2015). Ko'p madaniyatli marketing strategiyasining muvaffaqiyati uchun madaniy farqlarni aniqlash, tushunish va hurmat qilish kerak. Korxonalar turli xil «to'lqin uzunliklari» bo'yicha muloqot qilishlari va dunyoning turli bozorlariga moslashishlari kerak (Wilkinson & Cheng, 1999).

Iste'molchilarning chalkashligi - bu xaridorlarning nomukammal sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishiga yoki ularning sotib olish qarorlarining to'g'riligiga ishonchsizligiga olib keladigan ruhiy holat. Chalkashliklar iste'molchi mahsulot va xizmatlarni to'g'ri tushunmagan yoki sharhlay olmaganida yuzaga keladi. Bu o'z navbatida, ularni nomukammal sotib olish to'g'risida qaror qabul qilishga olib keladi. Ushbu konsepsiya marketologlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki iste'molchilarning chalkashligi savdolarning pasayishiga, mahsulotlardan qoniqishning pasayishiga va iste'molchi bilan samarali aloqa qilishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Bu iste'molchilarning xulq-atvori va qaror qabul qilishning bir qismi bo'lgan keng o'rganilgan va keng mavzu.



Firmaning strategik maqsadlari aniqlangandan, maqsadli bozor tanlanib, kompaniya, mahsulot, xizmat yoki brend uchun kerakli joylashuv aniqlangandan so'ng, marketing menejerlari tanlangan strategiyani eng yaxshi tarzda qanday amalga oshirishga e'tibor berishadi. An'anaga ko'ra, bu marketingning «4 Ps» yo'nalishi bo'yicha amalga oshirishni rejalashtirishni o'z ichiga oladi: mahsulotni (yoki xizmatni) boshqarish, narxlar, joy va reklama. Jami beshta P bo'lgan yangi P qo'shildi. Beshinchi P - siyosat, bu xizmat ko'rsatuvchi marketingga sezilarli darajada ta'sir qiladi.

Xizmat marketingi menejeri ishining bir qismi biznesga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan tashqi ta'sirlarni va mavjud marketing sharoitlarini tahlil qilishdan iborat. Marketingni boshqarish vazifalari raqobatchini va qiymat zanjirini tahlil qilishni, tovar auditini yig'ishni va sifatli va miqdoriy tadqiqotlarni yig'ishni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu tadqiqot, biznesning kuchli va zaif tomonlarini baholash bilan bir qatorda, kelajakdagi marketing dasturlari va tashabbuslarini boshlash uchun foydalaniladigan marketing rejasiga kiradi. Marketing rejasining muvaffaqiyatli ishlab chiqilishi va bajarilishini nazorat qilish xizmatni marketingni boshqarish rollariga kiradi.

Bu yerda ko'rsatilgan marketing ko'rsatkichlari doimiyligi metrikalarni turkumlash uchun yaxshi asos yaratadi. Metrikalar marketing bo'yicha mutaxassislariga byudjetni daromadga asoslanganligini asoslash va tashkiliy o'sish va innovatsiyalarni rivojlantirishga imkon beradi. Ishlashni o'lchash uchun ishlatiladigan ba'zi bir umumiy ko'rsatkichlar orasida konversiya tezligi, bosish tezligi va yangi imkoniyatlar soni (ya'ni, yangi biznes bitimlari) mavjud. Boshqa o'lchov elementlari hisob-kitoblarga aniq hisob-kitoblar, mahsulot yoki dizayndagi ro'yxatdan o'tishlar soni, tovar xabardorligini o'lchash uchun markalar bo'yicha so'rovlar, investitsiyalarning rentabelligi va veb-saytlarning xitlari kiradi. Ushbu ko'rsatkichlar bo'yicha raqamli ma'lumotlar xizmat ko'rsatuvchi veb-sayt, sanoat ko'rgazmasi yoki og'zaki marketing kabi turli xil manbalardan olinishi mumkin. Marketologlar ushbu ko'rsatkichlar va ishlashni o'lchash orqali qiymatni isbotlash va marketingning tashkilotga qo'shgan hissasini namoyish etish uchun foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kotler Philip., Основы маркетинга, М, 1997;
2. Nosirov P., Abdullayeva L., Marketing — bozor iqtisodiyoti asosi, T., 1995;
3. Jalolov J. J., Marketing , T., 1999;
4. G'ulomov S. S, Marketing asoslari, T., 2002.
5. Kotler, Philip & Keller, L. Kevin (2012). Marketing Management 14e. Pearson Education Limited 2012
6. Paul H. Selden (1997). Sales Process Engineering: A Personal Workshop. Milwaukee, WI: ASQ Quality Press. p. 23.



МЕHMONXONALAR FAOLIYATIDA HISOB-KITOB MUNOSABATLARINING TUTGAN O'RNI

Samandarov Og'abek,

Urganch davlat universiteti 2-kurs "Turizm
(faoliyat turlari bo'yicha)" mutaxassisligi magistranti
Yusubova Maxliyo, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Xalkaro turizm fakulteti TU-26 guruhi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehmonxonalar faoliyatida hisob-kitob munosabatlarining tutgan o'rni haqida fikr yuritilib, ularni amalga oshirishning muhim xususiyatlari yoritilgan.

Ma'lumki, hisob yuritish har qanday mehmonxonani iqtisodiy jihatdan samarali boshqarish vositasidir. Hisob yuritish jarayonida mehmonxona faoliyatining ishlab chiqarish, iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlari haqida axborot shakllantiriladi. Shundan kelib chiqib, hisob buxgalteriya hisobi (moliyaviy hisob) va ishlab chiqarish (boshqaruv) hisobiga ajratiladi. Hisob yuritishning ikkala turi ham amaliyotda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'ladi va qisman bir xil ma'lumotlarga asoslanadi.

Moliyaviy hisob mehmonxonaning tashqi hamkorlar bilan pul shaklida ifodalangan barcha munosabatlarini qamrab oladi. Moliyaviy hisobda mehmonxona pul mablag'lari va mol-mulkinging harakati uzluksiz aks ettiriladi. Moliyaviy hisobning asosiy vazifasi mehmonxonaning mulkiy va moliyaviy holati haqida to'liq va ishonchli axborotni shakllantirishdan iborat bo'ladi. Moliyaviy hisob ma'lumotlari mohiyat e'tibori bilan, mehmonxonaning ochiq moliyaviy hisoboti ma'lumotlari hisoblanib, ular mehmonxona haqida to'liq bo'lmagan axborotni ifodalaydi, mehmonxonaning tijorat sirini va uning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz faoliyati natijalarini oshkor etmaydi.

Boshqaruv hisobi mehmonxonaning ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha operativ ma'lumotlarni ro'yxat olish va nazorat qilish, shuningdek tahlil qilish va tahlil natijalariga ko'ra, aniq boshqaruv qarorlari qabul qilish maqsadida mazkur ma'lumotlarni mumkin qadar aniq aks ettirilishini qamrab oladi. Boshqaruv hisobi ma'lumotlari biznes-rejalar, marketing sohasidagi operativ hisobot shakllari, mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatishni boshqarish tizimidagi ma'lumotlar, shuningdek boshqa har xil axborot manbalaridan olingan ma'lumotlardir. Ular majmuaviy xususiyatga ega bo'lib, mehmonxona faoliyatining barcha tomonlarini qamrab oladi va moliyaviy hisob ma'lumotlari bilan birga mehmonxona haqida to'liq axborotni, shu jumladan tijorat siri va mehmonxonaning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz faoliyati sabablari ifodalangan axborotni o'zida mujassamlashtiradi.

Mehmonxonaning moliyaviy xizmati quyidagi operatsiyalarni amalga oshiradi.

- mijozlarning schyotlari bo'yicha hisob-kitoblar. Har kuni (odatda tunda) mijozlarning barcha schyotlari bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshiriladi.

- mehmonxonaning daromad oladigan har bir bo'linmasi bo'yicha kundalik daromadlarni hisoblash.

- bosh direktorga taqdim etiladigan kundalik hisobot (Daily Report)ni tuzish. Ushbu hisobotda bo'linmalar bo'yicha olingan daromadlar, nomer fondining to'lishi va ayrim boshqa ko'rsatkichlar oldingi davrga taqqoslab ko'rsatiladi.

- xaridlar bo'yicha hisob-kitoblar. Mehmonxonaning tegishli bo'linmasida viza qo'yilgan schyot-fakturalar buxgalteriyaga kelib tushadi. Etkazib beruvchilarga haq to'lash odatda oy oxirida amalga oshiriladi.

- mehnat haqini hisoblash va to'lash.

- moliyaviy hisob va boshqaruv hisobini yuritish.

Hozirgi kunda mehmonxonalarda yuritiladigan hisobni boshqaruv hisobiga va moliyaviy hisobga ajratish qabul qilingan. Hisob yuritishning mazkur ikki turi o'rtasida aniq chegara mavjud bo'lmay, ma'lumotlarni boshqaruv hisobi yoki moliyaviy hisobga mansub deb topishning ba'zi bir mezonlarini belgilash mumkin.

Mehmonxona tuzgan barcha bitimlar qayd etiladigan birinchi hujjat kundalik hisob yuritish kitobi (Day Books) yoki operatsiyalar daftarlari (General Journal) hisoblanadi. Kundalik hisob yuritish kitobi (yoki operatsiyalar daftarlari) buxgalter tomonidan har kuni to'ldirib boriladi. Mehmonxonalarda bir nechta shunday kitoblar yuritiladi. Ularga xo'jalik operatsiyalarining



muayyan turiga oid ma'lumotlar kiritiladi. Bular sotuvlar kitobi, xaridlar kitobi, pul mablag'larining tushumi kitobi, pul mablag'larini to'lash kitobi va xaridlarning qaytarilishi kitobi kabilar. Amalda mehmonxonada tomonidan amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalarning har bir turi bo'yicha alohida kundalik hisob yuritish kitobi yuritiladi. Aynan, kundalik hisob yuritish kitobida quyidagi ma'lumotlar qayd etiladi:

- xo'jalik operatsiyasi o'tkazilgan sana;
- xo'jalik operatsiyasining tavsifi;
- xo'jalik operatsiyasini o'tkazish uchun asos bo'lgan birlamchi hujjatga havola;
- chaparasta havola;
- mazkur xo'jalik operatsiyasi natijasida o'tkazilgan pul mablag'lari summasi.

Mehmonxonalarda kundalik hisob yuritish kitobidan buxgalter foydalanadi. U mazkur kitobga o'zi foydali deb topgan boshqa har qanday ma'lumotni, misol uchun, o'z shaxsiy eslatmalarini qayd etishi mumkin. Ushbu qaydlar keyinchalik unga muayyan xo'jalik operatsiyasini amalga oshirish bilan bog'liq barcha tafsilotlarni eslash imkonini beradi.

1-jadval. Mehmonxonalarda kundalik hisob yuritish kitobi jadvali

Sana	Birlamchi hujjatga havola	Operatsiyaning tavsifi	Havola (chaparasta)	Debet	Kredit
2019-yil 6-yanvar	2018-yil 18-dekabrda tuzilgan 23-son shartnoma	Mol etkazib beruvchidan schyot olindi	Schyot** Schyot**	100	100

Ushbu jadvalda kundalik hisob yuritish kitobi shakli va 100 AQSh dollari miqdorida etkazib berilgan mol uchun schyot olingan holda kitobni to'ldirish varianti berilgan. Shuningdek, mehmonxonada buxgalteriyasi to'ldiriladigan navbatdagi hujjat bosh kitob hisoblanadi. Har qanday holatda muayyan mehmonxonada faoliyatini aks ettirish uchun qo'llanadigan barcha schyotlar ro'yxati bosh kitobning birinchi sahifasida "Schyotlar rejasi" (Chart of Accounts) sarlavhasi ostida ifodalanadi. Bosh kitob ikki tomonga, ya'ni debet va kredit tomonlariga ega bo'ladi.

Aktivlar schyotlarining debeti bo'yicha tovarlar, xizmatlar, mehmonxonada olgan pul mablag'lari bilan amalga oshirilgan operatsiyalar, kredit bo'yicha esa – mehmonxonada xarajatlari bilan bog'liq operatsiyalar aks ettiriladi. Aktivlar schyotlari odatda debet qoldig'iga ega bo'ladi.

Majburiyatlar va kapital schyotlari esa kredit qoldiq bo'ladi va kredit bo'yicha ko'payib, debet bo'yicha esa – kamayib boradi. Har bir schyot bo'yicha umumiy yakun - qoldiq chiqariladi. Ushbu qoldiq debet yoki kredit xususiyatiga ega bo'lishi mumkin.

Shulardan keyin, ana shunday taomil kredit bo'yicha foydalanilgan schyot uchun o'tkaziladi.

2-jadval. Schyot** "Oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish xarajatlari"

Sana	Havola	Debet	Kredit	Qoldiq	
				debet	kredit
2019-yil 5-yanvar	J11	100		100	

Schyot** "To'lovga taqdim etilgan schyot"

Sana	Havola	Debet	Kredit	Qoldiq	
				debet	kredit
2019-yil 5-yanvar	J11		100		100

Bu bilan pul mablag'lari harakatining hisobini yuritish kitobi mehmonxonada pul mablag'larining saqlanishi va ishlatilishi ustidan puxta nazorat o'rnatish imkonini beradi. Barcha pul mablag'larini ikki xil guruhga ajratish mumkin:

- naqd pul bilan amalga oshiriladigan mayda to'lovlar uchun ishlatiladigan kassadagi pul mablag'lari. Ularga tanga pullar, mahalliy va xorijiy valyutadagi qog'oz pullar kiradi;

- bankdagi pul mablag'lari. Ushbu guruhga banklardagi joriy va depozit hisobvaraqlari kiradi.

Ammo, balansda pul mablag'lari aylanma (joriy) aktivlar bo'limida bir satrda ko'rsatiladi. Bank hisobvarag'idan ko'chirmalar va mehmonxonadagi hisob yuritish ma'lumotlarining o'zaro muvofiqligini har oyda tekshirish pul mablag'lari harakatining hisobini yuritishda muhim o'rin tutadi. Tekshirish taomili quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- hisobot oyining oxirida mehmonxonada o'z hisobvarag'ini ochgan bankdan o'tkazilgan barcha pul mablag'lari haqida tasdiqnomani olish;

- pul mablag'lari harakatining hisobini yuritish kitobiga bank tasdiqlagan, ammo kitobda ifodalanmagan barcha to'lovlarni kiritish;



- pul mablag'lari harakatining hisobini yuritish kitobining bank tasdiqlamagan pozitsiyalarini qidirish;

- agar bunday pozitsiyalar topilgan bo'lsa, mazkur bitimlar bank tomonidan keyingi oying birinchi kunlarida o'tkazilgan-o'tkazilmagani tekshiriladi;

- agar ushbu bitimlar bank tomonidan o'tkazilgan bo'lmasa, mazkur summalarni ular tushishi kerak bo'lgan banklarda qidirish kerak.

Mehmondo'stlik sanoati korxonalari o'tkaziladigan moliyaviy operatsiyalarni qayta ko'rish uchun o'z aktivlariga mustaqil baho berilishiga muhtoj bo'ladi. Bu ularga o'z tashkiliy tuzilmasida buxgalteriya hisobi va audit sohasida bilim va malakaga ega bo'lgan xodimlarga ichki audit funksiyalarini yuklashga turtki beradi. Ichki auditorlar funksional operatsion komanda a'zosi bo'lmaydi va pog'ona menejerlaridan qat'i nazar, xizmat majburiyatiga ega bo'lmaydi. Mehmonxonalarining moliyaviy tahlili uchun yalpi daromad koeffitsienti, umumiy tashkiliy xarajatlar koeffitsienti, sof foyda koeffitsienti, mehnat haqi koeffitsienti, ijara xarajatlari koeffitsienti, reklama xarajatlari koeffitsienti kabi koeffitsientlar muhim ahamiyatga ega.

Yalpi daromad koeffitsienti – mahsulot qiymatining to'g'ridan-to'g'ri in'ikosi bo'lib, quyidagi yo'l bilan aniqlanadi. Mazkur koeffitsient darajasining yuqoriligi mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari uni sotish narxidan kam bo'lganini anglatishi mumkin, va aksincha. Biroq, mazkur koeffitsientni past darajada saqlash kompaniya umumiy strategiyasining bir qismi bo'lishi mumkin.

Umumiy operatsion xarajatlar koeffitsienti kompaniyaning barcha xarajatlarini, chunonchi: ijara haqi, mehnat haqi, reklama xarajatlari, sug'urta va ustama xarajatlarni o'z ichiga oladi. U sotuvlar sof hajmining birligiga nisbatan amalga oshirilgan operatsion xarajatlar tarzida aniqlanadi.

Sof foyda koeffitsienti barcha xarajatlar chegirib tashlanganidan keyin sotuvlar hajmidan foiz hisobida olingan foydani anglatadi va quyidagi yo'l bilan aniqlanadi.

Mehnat haqi koeffitsienti mehnatga haq to'lashga sarflangan sotuvlardan olingan foyda ulushini ko'rsatadi va quyidagicha hisoblanadi. Mehmondo'stlik sanoatida sotuvlar mavsumiy xususiyatga ega va odatda o'zgaruvchan bo'lgani uchun mazkur ko'rsatkich juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ijara xarajatlari koeffitsienti biznes olib borish uchun joyning muhimligini ko'rsatadi. Ijara xarajatlari darajasining oshishi reklama xarajatlari darajasi pasayishiga olib kelishi lozim, degan fikr keng tarqalgan.

Mehmondo'stlik sanoatida **reklama xarajatlari koeffitsientini** hisoblashda mahsulotni o'tkazishning barcha usullari va vositalari, shu jumladan televidenie, gazeta va jurnallar orqali reklama qilish, to'g'ridan-to'g'ri marketing va b. ishga solinadi. Koeffitsientning o'zi quyidagicha hisoblanadi.

O'zgarmas xarajatlar ishlab chiqarish va xizmatlarni sotish hajmiga bog'liq bo'lmaydi va doimiy ishlaydigan xodimlarga xarajatlar, ijara xarajatlari, mol-mulk xarajatlari, qarzlarni bo'yicha foizlarni o'z ichiga oladi.

O'zgaruvchi xarajatlar – kompaniyaning sotilgan mahsulot hajmiga to'g'ri proportsional tarzda o'zgaradigan xarajatlari. Ular soatbay haq to'lashni, ishlab chiqarish va xizmatlarni sotish uchun zarur texnologik ehtiyojlar qiymati, xom ashyo va boshqalarni o'z ichiga oladi. Yuqoridagi holatlar mehmonxonalarda hisob-kitob ishlarining yuritilishi bilan bog'liq barcha jarayonlarini to'la tavsiflab bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Baltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduhamidov S.A. «Turizm: nazariya va amaliyot». Darslik, Toshkent, 2018. - 405 b.

3. Mamatqulov X. M. Mehmonxona va turistik komplekslarda xizmatlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma. -S.: SamISI, 2012.-340b.

4. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya. 2010.



ЎЗБЕКИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ ШАҲАРЛАРИДАН ТУРИСТИК MAQSADLARDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Dilshod Xudayberganov

UrDU Turizm va mehmonxona xo'jaligini
boshqarish kafedrasini dotsenti, ilmiy rahbar

Dinora Do'schanova

UrDU Turizm va iqtisodiyot fakulteti
192-turizm guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatimizning tarixiy shaharlaridagi turistlarni jalb qiluvchi madaniy obyekt sifatida turizm maqsadlarida foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Turizm, tarixiy shaharlar, madaniy yodgorliklar, Xiva, Buxoro, Samarqand, Nukus.

Bugungi kunda respublikamizda turizm sohasiga katta e'tibor berilmoqda. O'tgan 2020-yilda koronavirus bilan bog'liq vaziyat tufayli butun dunyoda turizm va sayohat industriyasi susaygani va xalqaro turistlar oqimining keskin pasayishi kuzatilgan edi. Endilikda esa turizm sohasini rivojlantirish uchun bir qator sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda. 2021-yilning 9-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm sohasiga oid "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi yangi farmoni imzolandi.

Farmonga binoan, 2021-yilning 1-martidan boshlab, har bir turist, ya'ni mahalliy fuqarolardan joylashtirish vositasida yashagan har bir kuni uchun turistik yig'im undiriladi. Yig'im miqdori O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining 0.4 foizi, ya'ni milliy valyutada 980 so'm qilib belgilangan. Turistik yig'im ichki turizmni rag'batlantirish va turizm mavsumi past bo'lgan davrda joylashtirish vositasilarining bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekistonda Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan 2019-yil 1-noyabrdan boshlab, O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi tomonidan eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari, ya'ni shaharcha, shahar, qishloq va ovullarning mahallalarining ro'yhati shakllantirildi. Bunda fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 tadan kam bo'lmagan oilaviy mehmon uylari yaratilganda va sayyohlar uchun kamida 5 xil xizmat turi ko'rsatilganda ularga "Turizm mahallasi", "Turizm qishlog'i" va "Turizm ovuli" maqomi beriladi. Jumladan, tarixiy jihatdan eng go'zal shahar joylashgan Samarqand viloyatida ushbu farmon asosida ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, joriy yilning 12-fevralida Payariq tumani Konigil mahalla fuqarolar yig'iniga birinchi bo'lib "Konigil" turizm qishlog'iga sertifikat topshirildi. Shundan kelib chiqib, boshqa viloyatlarda ham bunday amaliy ishlarni davom ettirish belgilandi.

Har bir davlatning boyligi bu – uning tarixi va ajdodlaridan meros bo'lib qolgan meros hisoblanadi. Bu borada YUNESKO "Jahon merosi" ro'yxatiga kiritilgan O'zbekistonning qadimiy shaharlari – Samarqand, Buxoro, Xiva, Qashqadaryo viloyatlari sayyohlarni Buyuk Ipak yo'li karvonlari ruhiga kiradigan tarixiy me'moriy yodgorliklari bilan quvontiradi. Shulardan, Xorazmning qadimiy shaharlaridan biri bo'lgan va o'rta asr sharq memorchiligining tengsiz javohiri bo'lgan Xiva shahri 1990-yilning 12-dekabrda Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib YUNESKO "Jahon merosi" ro'yxatiga kiritilgan. Bu yerda asosan, masjid, madrasalar va minoralar: Pahlavon Mahmud maqbarasi, Muhammad Aminxon madrasasi, Ko'hna Ark, Tosh hovli, Olloqulixon karvonsaroyi va boshqalar mavjud. Bu obyektlarning tarixi, naqshi, bezaklari va ko'rinishi hammani qiziqtiradigan darajada noyob va juda go'zaldir.

Qadimiy va hamisha navqiron Samarqand shahrida 1105 ta arxeologik, 670 ta memoriy, 37 ta diqqatga sazovor joy, 18 ta monumental va 21 ta memorial toifaga kiruvchi jami 1851 ta moddiy ma'naviy meros obyektlar barchaning e'tiborini o'ziga tortadi. Samarqand shahri deganda shaharning "yuragi" deya e'tirof etiladigan "Registon maydoni" keladi. Bejizga bunday ta'rif berilmaganligini 3 ta madrasa orqali bilish mumkin, ya'ni Sherdor, Tillakori va Mirzo Ulug'bek madrasalari shular jumlasidandir. Madrasalar nomi va naqshu-bezaklari bilan insonni o'ziga jalb qiladi. Bundan tashqari, ko'pchilik xorijiy turistlar va davlat tashkiloti a'zolari ham Samarqandga



tashrifini boshqa joyga qaraganda ancha yuqori deb o'ylaydilar. Chunki, bu yerda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qabri joylashgan maqbaraga xotirlash maqsadida tashrif buyurishi shaharda ziyorat turizmi rivojlanishini yaqqol misoli bo'la oladi.

Buxoro shahri tarixiy markaz sifatida 1993-yilda YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Buxoro viloyati Buyuk Ipak yo'lining yirik tijorat markazi hisoblanadi. Bu yerda ko'plab arxitektura yodgorliklari mavjud bo'lib, ular 140 dan ortiqni tashkil etadi. Qadimda Buxoro shahriga "Muzey – shahar" deb logan berganlar. Buxoro – Naqshbandiya tariqatiga xos yettita buyuk so'fiylarining vatanidir. Tasavvufning buyuk vakillari bu yerda yashab, diniy va ijtimoiy faoliyat olib borib, muborak Buxoroning vujudga kelishi va gullab-yashnashi, ma'naviy tarbiya va hissiy ruhni yuksaltirishga hissalarini qo'shganlar. Bu yerda muqaddas so'fiylarning dafn etilgan joylari, ya'ni pirlar va islomiy ziyoratgohlar saqlanib qolgan. Buxoroga ziyoratga kelganlarning ko'pchiligi o'z safarlarini Naqshbandiya ta'limotiga asos logan ma'naviy ustoz Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniylarining maqbarasini ziyorat qilishdan boshlaydilar. Abduxoliq G'ijduvoniylarining payg'ambarning o'ninchi avlodi bilan ma'nau bog'liqdir. Maqbara ayvonining o'nta ustun va tayanchi o'ninchi avlodga ishora sanaladi.

2000-yilda Qashqadaryo viloyatining hunarmandchilik markazi bo'lgan Shahrisabz shahri YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Qarshi shahri bir necha arxitektura yodgorliklariga ega bo'lib, shulardan Shahrisabz shahrida joylashgan Oqsaroy, Ko'kgumbaz masjidi, Hazrati Imom masjidi, Jahongir maqbarasi va boshqa tarixiy yodgorliklar mashhurdir. Shaharda borib ko'rsa arzigulik muzey, ya'ni O'lkashunoslik muzeyi mavjud. Qashqadaryo viloyatining Hisor tog'larida qo'riqxonalar ham tashkil qilingan bo'lib, bu yerda noyob hayvonlarni uchratish mumkin.

Yuqorida aytib o'tilgan YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan shaharlardan tashqari boshqa joylar, ya'ni Qoraqalpog'iston Respublikasining ziyoratgoh joylari ko'pchilik turistlar e'tiborini tortadi. Bu yerda ko'plab ziyoratgoh joylari mavjud bo'lib, unda ichki turistlar ko'p tashrif buyuradigan maskan Sulton Uvays Bobo, Kechirmas Bobo va Norinjon Bobo majmualari hisoblanadi. Hamda turistik infratuzilmalariga Sovetskiy nomidagi davlat muzeyi, Mizdahqon arxeologik-arxitektura yodgorliklari, Ayozqal'a -1, Ayozqal'a-2, Ayozqal'a-3 va Tuproqqal'a kabi eng muhim yodgorliklarni kiritish mumkin.

Umuman olganda, O'zbekistondagi tarixiy shaharlaridan turistik maqsadlarda foydalanilib, bu imkoniyatlar kelajakda mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mamatqulov. X. M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. - T., 2011.
2. Xayitbayev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm. - S., 2010.
3. Tuxliyev I.S., Xayitbayev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. - T., 2014.
4. www.lex.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 26-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(9-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.03.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000